

**MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH  
TENDENSIYALARI: INNOVATSIYA, TA'LIM,  
TAJRIBA VA KADRLAR TAYYORLASH  
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
2023-YIL 9-10 IYUN**

**ТЕНДЕНЦИИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА  
ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ:  
ИННОВАЦИЯ, ОБРАЗОВАНИЯ, ОПЫТ И  
ПОДГОТОВКА КАДРОВ  
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ  
9-10 ИЮНЯ 2023-ГОДА**

**TRENDS IN IMPROVING THE QUALITY  
OF PRESCHOOL EDUCATION:  
INNOVATION, EDUCATION, EXPERIENCE  
AND PERSONNEL TRAINING  
THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
CONFERENCE  
JUNE 9-10, 2023 YEAR**

**Toshkent  
"METHODIST NASHRIYOTI"  
2023**

**UDK: 373.2**

**KBK: 74.1**

**M 20**

**Mualliflar jamoasi**

**“Maktabgacha ta’lim sifatini oshirish tendensiyalari: innovatsiya, ta’lim, tajriba va kadrlar tayyorlash” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to‘plami. – Toshkent: “METHODIST NASHRIYOTI”, 2023, 436 b.**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2022-yil 31-avgustdagi 195-son buyrug‘i hamda 2023-yilgi ish rejada belgilangan tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti rektorining 05.06.2023 yil 14-A sonli buyrug‘i asosida tashkil etildi.

**Konferensiyaning tashkiliy va dasturiy qo‘mitasi:**

1. Abdunazarova N.F. - MTTDMQTMOI rektori, rais
2. Abdullayeva N.SH. - O‘quv va metodik ishlar bo‘yicha prorektor, rais o‘rinbosari
3. Kalmuratov T.N. - Ma’naviy va ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor
4. Raximova S.S. – Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasini mudiri, p.f.f.d, dotsent
5. Valiyeva F.R. – Maktabgacha ta’lim menejmenti kafedrasini mudiri, p.f.f.d, dotsent
6. Saidova D.I. – Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri, p.f.f.d, dotsent
7. Otaqulov SH.M. – Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri, s.f.f.d, dotsent
8. Mo‘minova N.S. – Maktabgacha va musiqiy ta’lim kafedrasini mudiri, p.f.f.d.

**Taqrizchilar:**

Nigmatov A.N. - Maktabgacha ta’lim menejmenti kafedrasini professori, g.f.d.  
Ne‘matov Sh.E. - Ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash va menejmentning ilg‘or texnologiyalarni joriy etish bo‘limi boshlig‘i, p.f.n.,dotsent

**Sahifalovchilar:**

1. Haydarov R.Y.
2. Mavlonov N.Sh.
3. Dusmuxamedov A.A.

**To‘plam uchun mas’ul:** Valiyeva F.R., Raximova S.S.

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ilmiy kengashining 30.05.2023 dagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.**

*To‘plamda nashr etilgan maqola va tezislarning mazmuni hamda ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldirlar.*

**ISBN 978-9943-311-92-3**

© “METHODIST NASHRIYOTI”, 2023.

## SO‘Z BOSHI

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Zero, Yangi O'zbekiston Davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri uzluksiz ta'limning barcha jabhalari, shu jumladan maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida ham zamonga mos ta'lim sifatini ta'minlashdir. Respublikamizda kadrlar tayyorlash sohasida amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy talablariga mos keladigan, demokratik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan ta'lim sifati boshqaruvini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Maktabgacha ta'lim jamiyat avangardi sifatida taraqqiyotning oldida borishi va erishiladigan yutuqlarning ibtidosi sifatida ilmiy jihatdan asoslab berilishi lozim. O'z-o'zidan ayon bo'ladiki, maktabgacha ta'lim ijtimoiy jamiyat taraqqiyotida oldingi o'rinlarda bo'lishi lozim.

Ta'limda maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish va rivojlantirish asosida ijodiy qarashini tarkib toptirish, pedagog-tarbiyachi faoliyatining kreativlikka asoslanishini talab etadi. Bolaning ijtimoiylashuvi, uning ong tafakkurida yangicha qarashlarini tarkib topishida, bilim olishga bo'lgan yangicha munosabatlarni yuzaga keltirishda ta'lim tarbiya tizimi uning mazmuni va ta'lim tarbiya jarayonini zamon talablari darajasida tashkil etish bilan uzviy bog'liq.

Maktabgacha ta'lim sifatini oshirishning asosiy tendensiyalarini aniqlash ta'limdagi va jamiyatdagi hozirgi vaziyatni hisobga olgan holda ularning ta'lim sifatiga ta'sirini belgilash uning boshlang'ich bosqichi bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim sifatini boshqarish jarayoni hamisha, eng avvalo, baholash ko'rsatkichlarini tanlash, tegishli baholash mezonlaridan foydalanish, olingan ma'lumotlarni ekspert baholashi mobaynida talqin qilishning to'g'riligi va hokazolar bilan bog'liq yetarlicha miqdordagi subyektiv omillarni o'ziga qamrab olar ekan, bunda uning subyektlari uchun olingan ma'lumot va uning bahosining xolisligiga va aniqligiga erishishga intilish o'ta muhimdir.

Ta'lim sifati Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti asosida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning ko'zlangan maqsadlari, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ehtiyojlari va kutilmalari to'g'risidagi ma'lumotlarning umumiyliigi va natijalariga muvofiqlik darajasi sifatida ko'rib chiqiladi. Davlat standartini amalga oshirishda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat ta'lim dasturini, maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya berish sohasidagi o'quv-metodik qo'llanmalarni, metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirish, qurish, jihozlash va ularning faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.

“Maktabgacha ta'lim sifatini oshirish muammolari va yechimlari” mavzusidagi respublika ilmiy amaliy konferensiyasida bugungi kunda maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati, maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagog kadrlari tarkibi sifatini oshirish va ularni kasbiy rivojlantirish, maktabgacha ta'limda innovatsiyalarni joriy qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalarini (STEAM) qo'llash, maktabgacha ta'lim tashkilotining maktab bilan uzviylikini ta'minlash va ular o'rtasidagi integratsiyani shakllantirish masalalari, bu sohadagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari batafsil muhokama qilinadi.

Konferensiya natijasida soha mutaxassislari, olimlar tomonidan tavsiya va takliflar ishlab chiqiladi.

Konferensiya materiallaridan maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari, pedagog-xodimlari, doktorantlar, izlanuvchilar, maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari foydalanishlari mumkin.

Funksional vakolatlarning amalda qo'llanishi doim boshqaruvning sog'lom prinsipiga qarshilik qilgan.

Modomiki shunday ekan, funksional vakolatlarni taqdim qilishdan ehtiyot bo'lib foydalanish zarur. Bizning fikrimizcha, prinsipdan chiqishga va qaror qilinganga qaramasdan sog'lom fikr bilan rahbarlik qilish va chuqur o'ylab harakat qilish talab etiladi. Funksional vakolatlardan to'g'ri foydalanish uchun bu kimga bog'liq bo'lsa, o'sha kim vakolatga ega, nimaga yoki kim ustidan; nima uchun bu funksional vakolatlar kerak; bu vakolatlarning prinsiplari qanaqa kabi savollarni oydinlashtirib olishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. 2019-yil 16-dekabrda 595-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: "Nihol" nashriyoti, 2016.
3. Fatxuddinov R.A. "Innovatsionnyye menedjment: klassifikatsiya, struktury i otlichitelnye cherty innovatsionnykh organizatsiy, ekonomicheskoye zony, zakony organizatsii, nauchnyye podkhody i prinsipy i dr." : Uchebnik dlya VUZov. Izd.5-e, ispr., dop. "Piter", 2007.
4. Yo'ldoshev N.Q. Strategik menejment. Darslik. – T.: TDIU, 2012.
5. Yo'ldoshev N.Q., Nabokov V.I. Menejment nazariyasi. Darslik. T.: TDIU, 2012.
6. Umarxodjayeva M.G. Operatsion menejment. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Darslik.Toshkent — 2014.
7. Tagaxtiyeva G.K. Innovatsion menejment. O'quv qo'llanma. -T.: "Fan va texnologiya", 2013.

## **INNOVATSION BOSHQARUVNI TASHKIL ETISHDA DAVLAT XIZMATCHISINING AXLOQIY SIFATLARINI O'RNI**

**O.Z.Raxmatullayev**

*Maktabgacha ta'lim agentligi direktori o'rinbosari*

Boshqaruv tizimida innovatsion faolliyatni joriy etishda rahbarning boshqaruv jarayonini nazorat qilishi, qarorlar qabul qilishi, buyruq va ko'rsatmalar, maslahatlar berishi ilmiy asoslanganligi ta'lim tizimida sifat samarasini ta'minlash belgilari hisoblanadi.

Boshqaruv tizimida rahbar jamoadagi xodimlari faoliyatini boshqarishni amalga oshirishda yetakchilik xususiyati va innovatsion yondashuvlari bilan o'zgalardan ajralib turishi lozim. Boshqaruvda zamonaviy rahbarning kadrlarni tayyorlashdagi asosiy burchi, o'z vazifalarini bajarishda qat'iy bo'lishi lozimligi hisoblanadi. Bunda, rahbar xodimlarning o'z malakalarini oshirishlari, boshqaruv sifatini ta'minlashdagi asosiy ko'rsatkichlari bo'lib xizmat qiladi.

Rahbar innovatsiyalarni boshqaruv faoliyatida joriy etishni doimiy ravishda nazorat qilishi, har bir xodimning innovatsion faoliyatiga alohida ahamiyat qaratishi lozim. Zamonaviy sharoitlarda uning innovatsion qobiliyatini rivojlantirishda rahbar faolligini ko'rsatishi lozim.

Zamonaviy boshqaruv tizimida innovatsiyalarga qarshi to'siqlar ham bo'lishi mumkin. Bunda, ko'pchilik xodimlarning yutuqqa erishishga emas, balki mag'lubiyatlardan qochishga intilishi, tavakkalchilik va qiyinchiliklardan qo'rqishi, o'z-o'zini rivojlantirishga qiziqishni yetarli emasligi, qo'pol muomala madaniyati va xususan o'zaro aloqalarda o'zaro bir-birini tushunmasligi, o'zining kasbiy vazifalarini tushunmaslik va oqibat natijada mehnatdagi faollikning to'liq bo'lmasligi va boshka omillar paydo bo'lishi mumkin.

Rahbar esa, barchaga etalon sifatida ko'rsatishga arziydigan, kelajakni oldindan ko'ra olish, odamlarni o'z so'ziga ishonтира olish, xalqni o'zining ortidan ergashtira olish kabi xususiyatlarga ega

---

<sup>1</sup> <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/2129/1493>

## 5-SHO‘BA: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA PSIXOLOGIK YONDASHUV

### 3-7 YOSHLI BOLALARDA GIPERAKTIVLIKNI ANIQLASHDA PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKALARDAN FOYDALANISH

**Abdullayeva N.Sh.**

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini  
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining  
o'quv va metodik ishlar bo'yicha prorektori*

**Kodirova M.E.**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
Termiz davlat pedagogika instituti maktabgacha  
ta'lim fakulteti ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 2-kurs 21-16 guruh magistranti*

Giperaktivlik ko'pincha maktabgacha yoshda o'zini namoyon qiladi. Kichik maktab yoshida giperaktivlik belgilarini eng aniq namoyon bo'ladigan vaqti hisoblanadi. Giperaktivlikni bartaraf etishda birinchi qadam avvalo uni to'g'ri diagnostika qila olish hisoblanadi. Quyidagi belgilar birlamchi diagnostika natijalaridir:

**I. Ehtiyotsizlik belgilari** (bolalar - kamida 6 ta simptom, o'smirlarda - kamida 6 oy davomida kamida 5 ta simptom):

1. Tafsilotlarga e'tibor qaratmaslik, e'tiborsizlik xatolari;
2. Uzoq vaqt davomida e'tiborni ushlab turolmaslik;
3. Ko'pincha odam aytilgan nutqni tinglamagandek taassurot qoldiradi;
4. Ko'rsatmalarga, algoritmlarga rioya qilmaslik (masalan, topshiriq shartlarini bajarish);
5. Vazifalarni bajarish jarayonida ishtirok etishga qarshilik, qochish yoki faol qarshilik;
6. Tez-tez narsalarni yo'qotish, ayniqsa vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan narsalarni;
7. Chetdan ogohlantirishlar yoki fikrlarga oson chalg'imaslik (o'z fikrlarida suzish);
8. Kundalik unutulchanlik (topshiriqlar, uy ishlari, kechikish);

**II. Yuqori faollik belgilari** (bolalar - kamida 6 ta simptom, o'smirlarda - kamida 6 oy davomida kamida 5 ta simptom):

1. Qo'llarda, oyoqlarda doimiy harakatlar, stulda tebranish;
2. Masalan, dars paytida tik turish;
3. Ko'pincha turli joylarga ko'tarilish, biror joyga ko'tarilish mumkin;
4. Jim o'ynay olmaslik, vaqt o'tkaza olmaslik;
5. Doimiy harakatda, go'yo "o'ralgan", xuddi "motorni biriktirgan"dek;
6. Suhbatdoshlik qilmaslik;
7. Savolning o'ziga quloq solmasdan javob beradi;
8. O'zining navbatini kutishi qiyin;
9. Boshqalarga xalaqit beradi, boshqa odamlarning ishlariga, o'yinlariga aralashadi, ruxsatsiz boshqa odamlarning narsalarini oladi.

Agar siz 3-7 yoshli farzandingizda kamida 6 ta simptomni aniqlasangiz unda bu bolada giperaktivlik belgilari namoyon bo'lmoqdaligini anglatadi.

Giperaktiv bolalar diagnostikasiga mo'ljallangan metodikalardan yana biri **J.Svanson** so'rovnomasidir. U giperaktiv bolalarning to'rt sohadagi ko'rsatkichlarni interpretatsiya qilish imkonini beradi: diqqat tanqisligi - giperaktivlik bilan, diqqat tanqisligi-giperaktivliksiz, giperaktivlik (impulsivlik, guruhiy buzilishlar)ni izohlaydi<sup>31</sup>. Natijalarni qayta ishlash va interpretatsiyasi so'rovnomaning taklif etilgan holatiga asosan «hech qachon»dan «har doim»gacha diapozonida

---


31 The SNAP Rating Scale for the Diagnosis of the Attention Deficit Disorder. JM Swanson

amalga oshirildi. So‘rovnoma 43 ta mushohadadan iborat bo‘lib, giperaktiv boladagi xulq-atvor xususiyatlarini aks ettiradi.

Ushbu so‘rovnomada javoblar nisbatiga qarab diagnostika amalga oshiriladi. So‘rovnoma maktabgacha ta‘lim tashkilotida 5-7 yoshli bolalar tarbiyalanuvchi guruhlarda tarbiyachilar va ota-onalar ishtirokida o‘tkazildi. Natija shuni ko‘rsatadiki, bolalarning 36 foizida giperaktivlik namoyon bo‘lmoqda va bu ulushning 32 foizni o‘g‘il bolalar tashkil etdi.

*1- rasm*

**Maktabgacha ta‘lim tashkilotida 5-7 yoshli bolalar bilan o‘tkazilgan J.Svanson so‘rovnomasi natijalari.**



Insondagi emotsiyaning asosiy vazifasi bu odamlarning bir-birini so‘zsiz tushuna olishlari, birgalikdagi faoliyat va muloqotga kirishishlarining ta‘minlashdir. Ushbu jarayonni yanada muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa shaxs emotsional holatini, emotsiyalarini o‘z iroda kuchi bilan boshqara olishi zarur bo‘ladi. Bolalarda emotsional-irodaviy boshqaruv ko‘nikmalarining yaxshi shakllanmaganligi ta‘lim-tarbiya tizimida, guruhdagi va oiladagi shaxslararo munosabatlarda, o‘quv faoliyatini tashkil qilish va boshqarishda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ushbu guruhga doir bolalardagi urushqoqlik, agressivlik, qaysarlik, qahri qattqlik, sabrsizlik, qo‘polliklarning yuqori darajasi va xulq-atvorini ongli boshqara olmaslik oqibatida tengdoshlari va oila a‘zolariga nisbatan tez-tez nizolar kelib chiqadi. Shuning uchun ular boshqalarga nisbatan ko‘proq tanbeh eshitadilar va jazolanadilar. Buning natijasida esa ularda o‘zlariga bo‘lgan ishonch, o‘zlariga beradigan baho pasayib boradi, ular muvaffaqiyat hissini kamdan-kam his etadilar. Bunday bolalarni tarbiyachi va ota-onalar tomonidan tushunmaslik, jazolash maktab dezadaptatsiyasiga, delikvent xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi.

Ushbu vaziyatda quyidagi amaliy choralar amalga oshiriladi:

1. Bolaning qanday rivojlanib borayotganligi aniqlanadi.
2. Bolaning o‘qishda orqada qolayotganligi yoki yomon xulq-atvori sabablari aniqlanadi.
3. Bolada mavjud bo‘lgan layoqat va qobiliyatlar o‘z vaqtida aniqlanadi.
4. Bolaning rivojlanishi bo‘yicha ota-onalar, tarbiyachilarga tavsiya-takliflar ishlab chiqiladi.

Shu tariqa, giperaktivlik bor deb taxmin etilgan bolalarni psixologik tadqiq etish bir nechta yo‘nalishlarni qamrab olishi zarur:

- diqqat va xotiraning rivojlanganlik darajasi;
- bola emotsional sohasining o‘ziga xosligi;
- oilaviy muhitning bola tomonidan idrok etilishini o‘rganish;
- bolaning uyda va maktabdagi (bog‘chada) xulq-atvorining o‘ziga xosligi.

Giperaktivlikni tashxis qilishda samarali metodlardan biri standartlashtirilgan kuzatuv bo‘lib, unga Amerika psixiatrlari tomonidan mezonlar ishlab chiqilgan. Biz ilmiy tadqiqot ishimizning aniqlovchi tajribasida giperaktiv bolalarni aniqlab olish uchun ushbu standartlashtirilgan kuzatuv mezonlaridan foydalandik. Bu metod giperaktivlikdagi yaqqol namoyon bo‘luvchi belgilarni o‘zida aks ettirib giperaktivlikni aniqlashda samarali hisoblanadi.

Metodika o'zida 14 ta mezonni aks ettiradi.

Mutaxassislar giperaktivlikli bolalarni quyidagi belgilar asosida ajratadilar:

1. Besaramjon harakatlar, bir joyda o'tirganda qiyshayaverish, oyoqlarini qimirlatib o'tirish.
2. Kerak bo'lganda ham bir joyda o'tira olmaslik.
3. Tashqi stimullarga osongina chalg'ish.
4. O'yin vaqtida va jamoadagi turli vaziyatlarda sabrsizlik, o'z navbatini kutib tura olmaslik (masalan, mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda).
5. Fikrni jamlashga qiynalish, savollarga o'ylamay, oxirigacha eshitmay javob berishga harakat qilish.
6. Topshiriqni bajarishdagi qiyinchiliklar.
7. Topshiriqni bajarish yoki o'yin vaqtida diqqatni qiyinchilik bilan saqlash.
8. Bir ishni tugatmay ikkinchisiga o'tib ketish.
9. Tinch, xotirjam o'ynay olmaslik.
10. Sergaplik.
11. Boshqalarga halaqit berish, atrofdagilarga tegajoqlik qilish (masalan, boshqa bolalarning o'yiniga aralashish).
12. Uyda va maktabda zarur narsalarni tez-tez yo'qotish (masalan, kitoblar, o'yinchoqlar, o'quv qurollari).
13. Unga aytilgan gapni eshitmayotgandek tuyulishi.
14. Oqibatlarni o'ylamay xavfli harakatlar qilish. Bunda bola sarguzashtlar yoki o'tkir hissiyotlarni qidirmaydi (masalan, hech qayoqqa qaramay mashina yo'liga chiqib ketishi).

#### **Ushbu belgilarni uchta guruhga ajratish mumkin:**

- Giperaktivlik belgilari (1, 2, 3, 9, 10);
- Diqqatning yetishmasligi va chalg'uvchanlik belgilari (3, 6, 7, 8, 12, 13);
- Impulsivlik belgilari (4, 5, 11, 14).

Agar bolada bu belgilarning yettita-sakkiztasi 6 oy davomida kuzatilsa, unga giperaktivlik tashxisini qo'yish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun T. 2019-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisda so'zlagan murojaaaatnomasi. 29.12.2020 y
3. Sh.Mirziyoevning 2017 yil 15 iyunda "Ijtimoiy barqarorlikni taminlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi" mavzuidagi nutqi
4. "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son 29.12.2019.
5. "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" - PQ-4312sonli qarori 8.05.2019 y.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sonli qarori. 30.09.2018-y.
7. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. T. 4.02. 2022-yil.
8. Umumiy psixologiya. P.I. Ivanov, M.E. Zufarova Toshkent. 2008
9. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi o'quv qo'llanma. X.Jalilova. M.Tursunova : o'quv qo'llanma Toshkent-2017 Bolalarda diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi psixodiagnostikasi.,

## **MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING XOTIRASI**

**Djurayeva M.T.**

*MTTDMQTMOI*

*"Pedagogika va psixologiya"  
kafedrasida katta o'qituvchisi*

Maktabgacha yoshidagi bolalar o'zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib

<b>Sharipova Sh.S.</b> Rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda “first” metodidan foydalanish	103
<b>Temirov A.A.</b> Maktabgacha ta’lim tashkilotining boshqaruv faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etishda rahbar faolligining o’rni	105
<b>Toshev O.N.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda innovatsion jarayonlardan foydalanish	106
<b>Toshpo’latov N.M.</b> Maktabgacha ekologik ta’lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyati	107
<b>Umataliyev Z.A.</b> Pedagogika kollejlarda tarbiyachilarni tayyorlashda dasturiy vositalardan foydalanish jarayonining muhim jihatlari	109
<b>Valiyeva F.R.</b> Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini innovatsion boshqarish tamoyillari	110
<b>Xamdamova N.I.</b> Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish tizimini joriy etish	112
<b>Xaydarova R.A.</b> Maktabgacha ta’lim tizimi mutaxassislarning innovatsion faoliyatga moslashuvida raqamli savodxonlikning ahamiyati	113
<b>Xaydarova S.S.</b> Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbar kadrlarining kasbiy kompetentligini oshirish	115
<b>Xodiboyeva Sh.U.</b> Maktabgacha ta’limda menejment, zamonaviy yondashuv va samarali shakllar	116
<b>Калирова Д.Н.</b> Особенности организации образовательной деятельности в пяти центрах развития по государственной программе «Илк кадам»	118
<b>Танярикова Д.Г.</b> Развитие информационной компетентности учителя: современные требования и вызовы	119
<b>Тухфатуллина Л.Ф.</b> Взаимодействие дошкольной образовательной организации и семьи	121
<b>Умарова Р.Р.</b> Управленческие инновации - необходимое условие модернизации образования	123
<b>Хайдаров Р.Ю.</b> Влияние использования цифровых технологий на улучшение качества работы дошкольных организаций	126
<b>Хайдаров Р.Ю.</b> Роль цифровых технологий в улучшении качества образования в дошкольных организациях	127
<b>2-sho’ba:</b>	
<b>Madraximov B.</b> Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktorlarining xuquqiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi	129
<b>Akhmetova N.S.</b> Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog’lom ovqatlantirishning muhim jihatlari	135
<b>Raximova S.S., Ro’ziyeva Sh.M.</b> Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sog’lom ovqatlantirishning zamonaviy usullari	137
<b>Ro’ziyeva Sh.M.</b> Bolalarning ratsional ovqatlanish va uning inson salomatligi uchun roli haqidagi bilimlarini boyitish va kengaytirish	139
<b>To’xtasinova O.R.</b> 3-4 yoshli bolalarni sog’lom ovqatlanish orqali gigienik ko’nikmalarini shakllantirish	141
<b>3-sho’ba:</b>	
<b>Arslanova M.M.</b> Maktabgacha inklyuziv ta’limning pedagogik tamoyillari	144
<b>Asadullayeva M.A., Rizayeva F.F.</b> Inklyuziv xizmat ko’rsatishda ta’lim berish, tarbiya berish va rivojlantirish muammolari	146
<b>Dehqonova M.G’.</b> Inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishning klaster yo’nalishi va unga bildirilgan mulohazalar	148
<b>Haydarova M.I., Boltaxo’jayeva M.V.</b> Inklyuziv ta’lim tizimida o’quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishi, ko’rishida va eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalar inklyuziv ta’limida sinflarni va dars jarayonini moslashtirish	149
<b>Karimova F.A.</b> O’zbekistonda maktabgacha inklyuziv ta’limning rivojlanish istiqbollari	151
<b>Nurmatova Sh. Sh.</b> Imkoniyati cheklangan o’quvchilarning inklyuziv ta’lim olish tizimi	152



<b>Nurmatova Sh. Sh.</b> Uy ta'limining amaliyotga tadbiiq etilishi	154
<b>Panferova I.V., Fazilova N.M.</b> Additional educational programs for children with special needs	155
<b>Po'latxo'jayeva M.M.</b> Alohida yordamga muhtoj bolalarning parvarishida tibbiy psixologiyaning o'rni	157
<b>Rasuleva D.Ya.</b> Uzluksiz ta'lim jarayonida inklyuziv ta'lim uzviyligini ta'minlash tamoyillari	159
<b>Umarova Z.M.</b> Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar onalari uchun "onalari klubi"ni tashkil etish va qo'llab-quvvatlash	160
<b>Xoldarova G.S.</b> Inklyuziv ta'lim: muammo va yechimlar	163
<b>Xudoynazarova Sh. T.</b> Inkluziv ta'lim va uni tashkil etishning muhim xususiyatlar	165
<b>4-sho'ba:</b>	
<b>Abdulazizova M. A.</b> Bolalardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning o'ziga xosliklari	168
<b>Abdulazizova M.A.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining maqsadi, vazifalari va vositalari	169
<b>Abdullaeva Z.Sh.</b> MTTda bolalarni maktabga sifatli tayyorlashda hamkorlik	170
<b>Ahmadaliyev S.Y.</b> Barkamol avlodni tarbiyalashda ma'naviyatning o'rni	172
<b>Ahmedova L.A.</b> Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini kasblar bilan tanishtirishda xalq og'zaki ijodi(maqol, she'r va topishmoqlar)dan foydalanishning ahamiyati	174
<b>Aliyeva I.O.</b> Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzini jismoniy madaniyat orqali shakllantirish	176
<b>Amanova D.K.</b> Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni	178
<b>Asiljonova Sh.D.</b> Institute for retraining and advanced training of preschool education personnel and manager	180
<b>Axmadaliev S.Y.</b> Vositasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	181
<b>Axmedov B.M.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish usullari	184
<b>Azizova Z.B.</b> Bo'lajak pedagoglarning kasbiy-pedagogik kompetentlik asoslari.	186
<b>Boymurodova G.T., Teshayeva S. J.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda steam ta'lim tizimidan foydalanishning ahamiyati va afzalliklari	190
<b>Bozorbayeva G.A.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish	192
<b>Djamilova N.N, Xakimova M.</b> Bo'lajak tarbiyachilarni akmeologik kompetensiyalarni rivojlantir texnologiyasi	194
<b>Djamilova N.N.</b> Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarining kasbiy va akmeologik kompetensiyalarini rivojlantirish	195
<b>Djo'raboyeva R.T.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ma'naviyatini shakllantirish asoslari	198
<b>Djumanova D.M.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda ta'lim va tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda zamonaviy muhitni shakllantirish	199
<b>Egamova A.SH.</b> Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasini qo'llash	201
<b>Ergasheva B.O.</b> Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazish	203
<b>Ergasheva B.Z., Abduqayumova M.O.</b> Hozirgi davr pedagog-tarbiyachisining kasbiy kompetensiyasi	206
<b>Erhanova N.A.</b> Tarbiyalanuvchilar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodlari	210
<b>Eshmatova H.X.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda xorijiy tilning o'zlashtirishning xususiyatlari	211
<b>Fayzullayeva SH.R.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida predmetli- rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda steam ta'lim texnologiyasidan foydalanish	213
<b>Fayzullayev Sh.N.</b> Amerikada sving rivoji va "sving davri"	216
<b>Gafurova D.S.</b> Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasi asosida loyihalash usulining ahamiyati	219

<b>Isabekova D.S.</b> Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirishning mazmun mohiyati va texnologiyasi.	222
<b>Jiyanov F.M.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish	224
<b>Kattaho'jayeva S.B.</b> Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga savodxonlikka o'rgatishning mazmun mohiyatini o'rganish.	227
<b>Mahkamova SH.R., Rizayeva F.F.</b> Steam ta'lim texnologiyasini tadbiq etishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish.	229
<b>Mamatova H.E.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli xil oyinlaridan foydalanishga doir tavsiyalar	232
<b>Mardonov E.M., Jomurodova N.T.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlar jarayonini zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali tashkil etish.	234
<b>Mardonov E.M., Ostonov Q., Jomurodova N.T.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni hisoblashni o'rgatishda loyiha faoliyatidan foydalanish imkoniyatlari	236
<b>Maxmudova K.R.</b> Kompyuter o'yinlaridan maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlari	238
<b>Mirkasimova Z.A.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'zbek-ingliz bilingvizmini ko'rgazmalilik va harakatli oyinlar vositasida shakllantirish	241
<b>Miryusupova N.SH.</b> Kvalitologik kompetentlik – ta'lim sifati kafolati	242
<b>Mizamova H.M.</b> Bolaning har tomonlama rivojlanishida musiqiy ta'limni tashkil etish masalalari	244
<b>Mo'minova Z.I.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi	246
<b>Murodova F.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'stirish metodikasi	249
<b>Musratova Z.U.</b> Pedagogical support and development of children's intellectual opportunities in preschool education	250
<b>Ne'matov SH.E., Pirimbetov B.A.</b> Bo'lajak o'qituvchilarning teatr pedagogikasidan foydalanish yo'llari	252
<b>Normirzayeva M.</b> Steam ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limda qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar	254
<b>Po'latov F.U.</b> Axborot – kommunikatsion texnologiyalari vositasida san'at rivojlanish markazida ta'limiy jarayon samaradorligini oshirish	257
<b>Po'latov F.U.</b> Ranglarning inson hayotidagi o'rni	258
<b>Qarshibaeva D.X.</b> Maktabgacha talimda metodik xizmatni tashkil qilishda zamonaviy yondashuvlar	259
<b>Qodirova F.R., Fayzullayeva M.Z.</b> Maktabgacha ta'limda tabiiy va badiiy-estetik tarbiyaning integratsiyasida steam ta'lim texnologiyasini qo'llash	261
<b>Rabbimova M.M.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'lajak tarbiyachilarining amaliy kompetentligini rivojlantirish jarayonini ilmiy-uslubiy ta'minlash	263
<b>Rashidova D.O.</b> Maktabgacha ta'lim tizimida - zamonaviy ta'lim	265
<b>Raximova S.S.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik rivojlanish, intellektual qobiliyatlar ta'lim moduli sifatida	268
<b>Rixsiboyeva M.N.</b> Tarbiyachining kreativ sifatlarigazamonaviy yondashuvlar	270
<b>Rizayeva M.M.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi ta'lim muhitini shakllantirishning metodik asoslari	272
<b>Rustamova M.E., Sharafutdinova D. A.</b> Maktabgacha ta'limda steam ta'lim texnologiyasidan foydalanish zaruriyati	274
<b>Ruziyev N.M.</b> Amaliy san'at mashg'ulotlarida talabalarni fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish	277
<b>Ruziyev N.M.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loy bilan ishlashning ahamiyati	281
<b>Saidusmonova J.T.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish	282
<b>Salimova D.F.</b> Syujetli-rolli oyinlar vositasida maktabgacha o'rta guruh bolalarining axloqiy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy metodik tavsiyalar	284

<b>Saparbayeva O., Rahmonova S., Rajabova G.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida steam texnologiyasi	286
<b>Shodmonov Z.X., Abdulazizova M.A.</b> Rivojlanish muhitining pedagogik tavsifi	288
<b>Sultonqulova G.M.</b> Kasbiy kompetentligini takomillashtirishda tarbiyachining zamonaviy yondashuvi	291
<b>Tadjiyeva M.X.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy va mustaqil izlanishlarini rivojlantirishda loyihaviy ta'lim faoliyatini tashkil etishning mazmuni.	294
<b>Tashbayev N.S.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida pedagogik mahoratni shakllantirish asoslari	297
<b>Tasheva N.S.</b> Lego konstruksiyalash jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning steam kompetensiyalarini rivojlantirish	299
<b>Toyrova D.S.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligini shakllantirishda tasviriy san'atning ahamiyati	302
<b>Umaraliev M.</b> O'qituvchining dars jarayonida ko'llaydigan metodi – ta'lim sifatining asosiy omilidir	304
<b>Umarova M.</b> Maktabgacha ta'limda steam ta'lim texnologiyasi	306
<b>Uralova N.M.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish	309
<b>Urmonova T.I.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda blum taksonomiyasidan foydalanish.	311
<b>Vafoyeva X.S., Mamauraimova M.M.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb masalalari	315
<b>Voxidov D.O.</b> Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda umumiy kompetensiyalarning rivojlanish bosqichlari	317
<b>Xakimova D.A.</b> Ta'limiy oyinlarning ilk yoshdagi bolalarga xorijiy til o'rgatish jarayonida tutgan o'rni	319
<b>Xazratkulova G.T.</b> Maktabgacha katta yoshdagi bolalardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning o'ziga xosliklari	321
<b>Xolboyeva SH.A.</b> Interfaol texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonlarini tashkillashtirish "Prezi" ilovasi misolida	324
<b>Xujamiyarov S.CH.</b> Bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini tashkil etishning metodik imkoniyatlari	325
<b>Yadgarova V.S.</b> Maktabgacha ta'limda soft (yumshoq) ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari	328
<b>Байжанов Т. Ж.</b> Steam – технологии в дошкольном образовании	329
<b>Гриднева Р.Р.</b> Развитие критического мышления через steam	331
<b>Евстафьева L.G.</b> Стем -образование наиболее перспективная технология для детей старшего дошкольного возраста	334
<b>Кадырова А.М.</b> Steam–технология через методы визуализации информации в дошкольном образовании	335
<b>Олимов С.А.</b> Оценка эффективности использования инновационного методического обеспечения в дошкольных образовательных организациях	337
<b>Пак С.В.</b> Современные подходы в профессиональной подготовке студентов по методике математического развития дошкольников	338
<b>Расулходжаева М. А., Туракулова Д.Б.</b> Методологические основы развитие творческого воображения детей старшего дошкольного возраста в подвижных играх	340
<b>Расулходжаева М.А., Цой В.</b> Формирование основ патриотизма у детей старшего дошкольного возраста в процессе ознакомления с родным городом	342
<b>Рахимов З.А.</b> Отношение к русской литературе и жизненные ориентации молодежи	343
<b>Режаметова Н.И.</b> Методологические принципы модернизации дошкольного музыкального образования	347

<b>Садикова Д.Х.</b> Steam технологии в дошкольном образовании	350
<b>Халилова Д.Ф.</b> Педагогические условия повышения социальной компетенции будущих воспитателей дошкольных образовательных учреждений	352
<b>5-sho'ba:</b>	
<b>Abdullayeva N.Sh., Kodirova M.E.</b> 3-7 yoshli bolalarda giperaktivlikni aniqlashda psixologik diagnostikalardan foydalanish	355
<b>Djurayeva M.T.</b> Maktabgacha yoshidagi bolalarning xotirasi	357
<b>Ibragimova G.X.</b> Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar rivojlanishida psixologik yondashuv va uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysini amalga oshirish	359
<b>Isxakova M.R.</b> Maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy metodikalarni joriy etish	362
<b>Mo'minov Sh.K.</b> Bolalar psixodiagnostikasi	366
<b>Mo'minova G.B.</b> Ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishining ilmiy asoslari	367
<b>Musurmonov O.R., A.I. Djurayev</b> Shaxs fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlarni oldini olish pedagogik muammo sifatida	371
<b>Nekboyeva M.O.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida psixologik yondashuv	373
<b>Rashidova Z.O.</b> Maktabga tayyorlov guruhi bolalarining hissiy jihatdan rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari	378
<b>Raxmonov Y.O'.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida psixologik yondashuv	380
<b>Saidova D.I.</b> Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirishning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri	382
<b>Salayeva L.Sh.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi va ularning shaxs sifatida shakllanishi	385
<b>Saliyeva D.A.</b> Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktab ta'limiga psixologik tayyorlashning o'ziga xosligi	388
<b>Tuychiyeva I.I., Hokimjonova M.Z.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining psixologik xususiyatlari	389
<b>Usnatdinova J.Sh.</b> Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda o'z-o'zini adekvat baholash qobiliyatini rivojlantirish xususiyatlari	392
<b>Usnatdinova J.Sh.</b> Ajdodlar merosida o'z-o'zini anglash va baholash masalalari	394
<b>Xo'jamatova X.M.</b> 5-6 yoshli bolalarni ijtimoiy rivojlanishida psixologik yondashuv	396
<b>Xurvaliyeva T.L.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni emosional rivojlanishi	399
<b>Yulchiboyeva D.E.</b> Oilada maktabgacha yosh davridagi bolalarning emosional tarbiyasini shakllanishi	401
<b>Алиева З.А.</b> Изучение теории поколения с учетом возрастных особенностей дошкольников	404
<b>Даданова А.Т.</b> Влияние социальных сетей на психику и эмоциональное состояние школьников	405
<b>Жумашева Г.Х., Тенелбаева А., Каллибекова Ж., Умирзакова Г.</b> Игровой подход к развитию детей в дошкольном возрасте	407
<b>Исакулова Б.Х.</b> Обучение детей дошкольного возраста английскому языку с помощью игры снаружи и внутри	410
<b>Кулдашева Г.Д.</b> Особенности развития детей дошкольного возраста	412
<b>Нажмиддинова Г.О.</b> Билингвизм дошкольников как социально-коммуникативный процесс	414
<b>Назарова Э.Н.</b> Вопросы диагностики социально-коммуникативного развития детей раннего возраста	416
<b>Назирова Г.М.</b> Психологические особенности детского творчества в процессе занятий в центрах развития ДОО	419
<b>Панеш Б.Х.</b> Формирование целостной картины мира у дошкольников как психолого-педагогическая проблема	421